

## Valental Practice In Uzbek Tilshunoslik

Eshmirzaev Bahodir Jurayevich & Amirqulov Sanjar Sayitmuratovich

Teachers of Denova branch of Termiz State University

**Abstract:** The article is based on the theory of linguistic theory of linguistic unity, which is based on scientifically groundedness of semanticandency, lexiconity units, which connects words to valence (in the ability to communicate and interact) and in some synonyms.

**Key words:** valency, semanticvalentilism, lexiconity, linguistic stress, syntactic stress, grammatical form valency

Tilimizda mavjud jamiki so‘zlar u mustaqil so‘z bo‘ladimi, yordamchi so‘z bo‘ladimi, o‘zining butun ma’no xususiyatlari, tovlanishlari boshqa bir so‘z bilan bog‘lanish jarayonida namoyon bo‘ladi. Bu esa, albatta, valentlik, ya’ni so‘zlarning o‘zaro bog‘lanish va birikish imkoniyati orqali yuzaga chiqadi. Qaysidir so‘zlarning bu imkoniyati keng, qaysilarida esa tor.

Valentlik to‘g‘risida tilshunoslikda o‘xhash va farqli qarashlar talaygina. Valentlik bu sintaksis ichidagi jarayonlarning zamirida yotgan juda

muhim bir tayanch yoki asosdir. Dastlabki qarashlardan birida shunday deyiladi:

“So‘zlarning bir-biri bilan sintaktik aloqaga kirishi ma’lum. Bu hodisa u so‘zlarning qaysi leksik-grammatik kategoriyaga kirishi (ot,fe’l va b), morfologik sostavi (fe’lning qaysi nisbatda ekanligi) va leksik ma’nosi bilan bog‘liq. Demak har bir so‘zning o‘z leksik-grammatik tabiatiga asoslangan bog‘lanish xususiyatlari bor: ot+fe’l, sifat+ot va h.k. So‘zlarning bolanish hodisasi, qo‘shilish imkoniyatlari so‘zning valentlik xususiyatlari sanaladi: Sintaktik valentlik<sup>1</sup>: Bunda asosiy urg‘u sintaktik valentlikka qaratilgan bo‘lsa-da, bizningcha, leksik valentlik mavjudligiga ham ishora qilindi. SHu o‘rinda yana bir mulohaza: ehtimol, bu har qanday lisoniy birlik yoki hodisaning ikki tomonga egaligiga ishoradir. CHunki shakllning o‘zi, mazmunsiz nimadir ifodalab bera

<sup>1</sup> G‘ulomov A, Asqarova M. Hozirgi O‘zbek adabiy tili (sintaksis) Toshkent: O’qituvchi 1987

olmaydi. Bunda leksik grammatik kategoriya hamda morfologik sostav bog‘lanish va birikishda shakl tomondan inobatga olinsa, leksik ma’no esa mazmun tomondan inobatga olingan bo‘ladi.

Agar asoslashda xatolikka yo‘l qo‘ymagan bo‘lsak, ushbu manbadan shunday fikr anglashilishi mumkin: valentlik ikkiga bo‘linadi:

1) sintaktik valentlik 2) leksik valentlik

Yana bir qarashda valentlik quyidagicha tavsiflanadi:

So‘z birikmasi bir so‘zning boshqa so‘zga qo‘shilish imkoniyatiga – valentligiga tayanadi. So‘z birikmasi hokim so‘z valentligining yuzaga chiquvidan uning imkoniyat tarzidagi bo‘sh o‘rinlarning to‘ldirilishidan vujudga keladi. So‘zning uch xil valentligini ajratish mumkin:

1) sintaktik valenlik 2) semantik valentlik

3) leksik valentlik<sup>2</sup>

Ushbu qarashda oqim va tobe bo‘lak o‘rtasidagi grammatik bog‘lanish (sintaktik valentlik) so‘zlar orasidagi mazmunli bog‘lanish (semantik valentlik) va bir sinonimik qatoriga mansub so‘zlardan birini uslubiy jihatdan bog‘lanish (leksik valentlik) o‘rni haqida nazariya ilgari surilgan. Ammo semantik valentlik va leksik valentlik orasida shunday bir umumiylilik mavjudki, ularning alohida-alohida olinishiga to‘sinqinlik qiladi. Chunki birida so‘zlar orasidagi mazmunan moslik asos qilib olinsa, ikkinchisida mazmun va uslub asos qilib olinadi. Uslubning zamirida ham aslida mazmun rol o‘ynaydi: ijobiy va salbiylik nuqtayi-nazaridan, albatta, ba’zi bir sinonimlarda esa, uslub, umuman, farq qilmaydi: *kulgu-xanda*, Ushbu jadvalga e’tiborimizni qaratsak:

<sup>2</sup> Mahmudov N, Nurmonov A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (sintaksis). Toshkent: O’qituvchi 1995

Semantikvalentlik	Leksikvalentlik
<i>Gapirdi</i>	<i>chiroyli</i>
<i>sayradi</i>	<i>go 'zal</i>
<i>bo 'kirdi</i>	<i>suluv</i>
<i>odam</i>	<i>lobar libos</i>
<i>vovuladi</i>	<i>xushro 'y</i>
<i>kishnadi</i>	<i>nafis</i>
<i>angradi</i>	<i>malohatli</i>

Demoqchimizki, ushbu birliklarning valentliklarini bir-biridan ajratish biroz g‘alizlikni keltirib chiqaradi. Chunki ikkisida ham mazmun va uslub mujassam tarzida ifodalangan. Masalan, nutqimizda odamga nisbatan gapirmoq so‘zidan tashqari qichqirmoq, sayramoq, bo‘kirmoq kabi so‘zlarni ham qo‘llay olamiz. Albatta, bu nutq imkoniyati va uning qo‘llanish o‘rni bor.

Demak, ushbu bo‘linishni ham ikkitur: sintaktik valentlik va semantik valentlik chegaralash bor: bizning qanoatimiz, biz ketdik; xo‘roz qichqirdi, chiroyli taqdir, ovqatni emoq.

Boshqa bir qarashda esa shunday deyilgan:

“Valentlik, aslida, kimyoviy atama, tilshunoslikda lisoniy birliklarning yuzaga chiqmagan birikuvchan-biriktiruvchanlik imkoniyati sifatida qaraluvchi lisoniy hodisaga nisbatan qo‘llaniladi: Ushbu nazariyada valentlik **lug‘aviy** valentlik, **sintaktik valentlik** va **grammatik shakl valentligi** kabi turlarga bo‘linishi qayd etilgan.

Lug‘aviy valentlik biriktiruvchi leksemani ma’noviy jihatdan o‘ziga mos biriktiruvchilarni tanlashadi. Masalan, (**hangra**) leksemasi (**push**) leksemasini o‘ziga tortaolmaydi.

Sintaktik valentlik leksema valentligining ikkinchi tomoni, u hokim mavqeyidagi leksemani tobe leksemalarni

o‘ziga tortish uchun ularning ma’lum bir sintaktik shaklda kelishik, ko‘makchi, ravishdosh, sifatdosh qo‘shimchasini olishini talab qilishi. *Xatni yozdi. Xat yozildi* sintaktik qurilmalaridagi xatni va xat so‘zlarini grammatik shakli bosh so‘zning grammatik shakli bilan belgilangan.

Leksemaga grammatik shakl qo‘shilganda ularning birikuvchilari sifatida jiddiy o‘zgarish yuz beradi. **Shoirmen** so‘z shakli – (-man) shaxs-son qo‘shimchasi bilan birikmasdan oldin, ya’ni (shoir) leksemasi sifatida (men) olmoshi bilan birikish ehtiyojiga ega emas ekan.

Ushbu holda shakliy tomondan ikki valentlik turib ajratilgan (yuqoridan mazmun tomonidan ikki turini ko‘rgandik). **Sintaktik valentlik va grammatik shakl** valentligini ajratib bo‘lmasligi esa yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Chunki ikkisida ham kesim misolida qaraladigan bo‘lsa, deyarli farq topish mushkul (yuqorida berilgan misollar). Ikki holda ham hokim so‘zning

grammatik shakli tobe qismini o‘ziga moslashtirib bo‘ysundirib olmoqda.

Lug‘aviy valentlik esa ma’noviy jixatidan o‘ziga mos so‘z tanlash imkonini nazarda tutadi. Umumiylashtirmoqchi bo‘lsak bundan ham valentlikning ikki turi sintaktik-grammatik valentlik lug‘aviy valentlik yuzaga chiqadi: vazifa bajarildi, biz talabamiz, otning kishnashi<sup>3</sup>.

Yuqoridagi hollardan ma’lumki valentlikning bir turi shakl jihatidan bog‘lanish imkoniyatini yuzaga chiqarsa, yana biri mazmun jihatidan bog‘lanishni vujudga keltiradi.

### Adabiyotlar:

- [1]. G‘ulomov A, Asarova M, Hozirgi o‘zbek adabiy tili (sintaksis) Toshkent: O‘qituvchi 1987.
- [2]. Mahmudov N, Nurmonov A, Hozirgi o‘zbek adabiy tili (sintaksis). Toshkent: O‘qituvchi 1995.
- [3]. Sayfullayeva R, Mengliyev B, Boqiyeva G‘, Qurbanova M, Yunusova Z, Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma – Toshkent: 2009

<sup>3</sup>Sayfullayeva R, Mengliyev B, Boqiyeva G, Qurbanova M, Yunusova Z, Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma – Toshkent 2009